

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIDINOV TOSHPO‘LAT SHOKIR O‘G‘LI

SHE‘R GRAFIK SHAKLI IFODA VOSITASI SIFATIDA
(Yangi o‘zbek she‘riyati misolida)

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Tojidinov Toshpo‘lat Shokir o‘g‘li She‘r grafik shakli ifoda vositasi sifatida (Yangi o‘zbek she‘riyati misolida).....	3
Тожидинов Тошпулат Шокир угли Графическая форма поэзии как средство выразительности (на примере новоузбекской поэзии).....	28
Tojidinov Toshpulat Shokir ugli The graphic form of poetry as a means of expression (in the case of New Uzbek poetry).....	52
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	72

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHPO‘LAT SHOKIR O‘G‘LI TOJIDINOV

SHE‘R GRAFIK SHAKLI IFODA VOSITASI SIFATIDA
(Yangi o‘zbek she‘riyati misolida)

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4760 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sayti (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Quronov Dilmurod Haydaraliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Amonova Zilola Qodirovna
filologiya fanlari doktori, dotsent.
Yakubov Islamjan Axmedjanovich
filologiya fanlari doktori, dotsent;

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zR Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 02/30.12.2019. Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" *iyul* soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'cha, 5-uy. Tel: (99871) 233-36-50; faks (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zR Fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (53 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" *iyun* kuni tarqatildi. (2025-yil "20" *iyun* dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

B.To'xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., prof.

[Handwritten signature]

D.Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, filol.f.f.d. (PhD)

[Handwritten signature]

U.A. Hamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, filol.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy mazmun ifodasiga bag'ishlangan izlanishlar barcha zamonlarda alohida mohiyat kasb etgan. Buning asosiy sababi adabiyotning inson qalbi, ruhiyati va estetik go'zalligini ifodalovchi soha ekanligi bilan izohlanadi. Ijodkor o'zi anglagan badiiy mazmunni o'quvchida ham qayta faollashtirishi uni qay darajada ifoda eta olganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa mukammal ifodaga bo'lgan ehtiyojni hamma adabiyotlar uchun birdek muhim jarayonga aylantirdi. Badiiy nutqning og'zaki shaklini yozuv vositasida qayta ifodalashning boshlanishi bilan grafik shakl tabiati, uning ifoda imkoniyatlari va namoyon bo'lish shakllarini o'rganish muammosi paydo bo'ldi. Nisbatan keyinroq bo'lsa-da, grafik shaklning ifoda imkoniyatlari orqali og'zaki nutqqa xos yondosh mazmunning ham yuzaga chiqish jarayonini o'rganish adabiyotshunoslik, tilshunoslik, psixologiya, mantiq, manbashunoslik kabi talay fan sohalari uchun muhim masalaga aylandi. Buning asosiy sababi yozuvning nutq irod qilinayotgan real vaqtdan tashqaridagi "so'zlovchi" va "tinglovchi" o'rtasidagi axborot almashinuvini qayta tashkillovchi yagona vosita ekanligidir.

Dunyo adabiyotida yuz berayotgan har qanday o'zgarish, xususan, yangilanishlarni ilg'ab turish, sabab-natijalarini uzluksiz tahlil qilish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Nutqning boshqa shakllaridan murakkab qurilishga ega ekanligi bilan xarakterlanuvchi badiiy nutqning amalga oshishida har qanday ifoda vositasi, xususan, grafik shakl ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'ziga xos qurilishga ega she'riy nutqda uning ifodaviy qimmati yanada ortadi. Grafik shaklning poetik mazmun ifodasidagi rolining ortib borishi unga ham ijodkor, ham o'quvchida birdek yangicha munosabatning shakllanganligida yanada aniqroq ko'rinadi. Oqibat, uzoq vaqt har jihatdan she'riy nutqning tashqi qurilishini ifoda qilgan she'r grafik shakli matn mazmuniga ta'sir ko'rsatish – uni yuqori aniqlikda ifodalash maqsadiga xizmat qila boshladi. Bu esa grafik shaklga, eng avvalo, ifoda vositasi deya qarash va uni asar tahlilidagi rolini belgilashni taqozo qiladi. Jahon adabiyotshunosligi she'r grafik shakliga sohaning alohida yo'nalishi sifatida qarab, talay izlanishlar olib borayotgan bir vaqtda milliy adabiyotshunosligimizda unga haligacha an'anaviy she'rshunoslik nuqtayi nazaridan munosabat bildirilishini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotida she'riy nutqqa nisbatan adabiyotning yagona ko'rinishi sifatida qarash tufayli qat'iy ritm va an'analar yetakchilik qilgan mumtoz adabiyotimiz namunalarida grafik shaklning qoliplashgan ko'rinish olishi tabiiy va bir vaqtda maqsadga muvofiq ham edi. XIX asr oxiriga kelib adabiyotimizda keskin burilish yuz berdi. Yaqin kunlarga kelib esa she'riyatimizning nafaqat nomi, balki mazmuni ham, uni ifoda qiluvchi shakli qurilishi ham yangilanish yo'lini bosib o'tayotgani yanada aniqroq ko'rina boshladi. Yangi o'zbek she'riyatining mazmuniy yangilanishlari haqida talay izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, uning moddiy asosi – grafik shakli haqida she'r qurilishi deb yuritiluvchi formal yondashuvga asoslangan mulohazalardan chetga chiqilmaydi. Xususan, ayrim adabiyotlardagi she'r grafik shakli; uning tarkibiy qismlari: band, misra istilohlari tahrirga muhtoj bo'lsa, yozuv kalligrafiyasi, orfografik me'yordan

og'ish, tinish belgilarining poetik mazmun ifodasidagi roli masalalari esa tahlil talabdir. Mukammal ifodaga ehtiyoj ifoda vositalarining doimiy yangilanishi va harakatiga sabab bo'ladi. Yangilangan tafakkur mahsuli bo'lgan betakror mazmun doimiy ravishda o'zini mukammal ifoda qilishga qodir vositaga ehtiyoj sezadi. Bu esa yozuv ashyolarining takomillashuvidan tortib zamonaviy axborot vositalarining mazmunning nozik nuqtalarini ifoda qilishga imkon beruvchi dasturlarning yaratilishigacha sabab bo'ldi. Shu bilan yozuvning eng oddiy shakllaridan to kompyuter dasturlarigacha ifoda vositasiga, badiiy matnda esa poetik mazmun ifodachisiga aylandi. Oqibatda, bugungi kun she'riyatida grafik shakl butkul yangicha mohiyat: vazifa va shakliy ko'rinishga ega bo'ldi. Ko'rinadiki, uning ifoda imkoniyatlarini o'rganish har doimgidan ko'ra zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi Farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida she'r grafik shakliga asar arxitektonikasi (asar tashqi qurilishi)ning¹ tarkibiy qismi sifatida qaralib, bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Bu izlanishlarning umumiy jihatlari she'r arxitektonikasiga ifoda vositasi, mazmunning shakldagi natijasi sifatida qaralishidadir. Shu bilan birga, she'r arxitektonikasini tashkillash ijod jarayoni bilan parallel kechuvchi va teng mavqega ega faoliyat sifatida ko'riladi.

Rus adabiyotshunosligida bu masala "poetik grafika" sifatida o'rganiladi². Xarakterli jihati shundaki, ular poetik grafikaga bir vaqtda ham

¹<https://diaryofanarchitecturalassistant.wordpress.com/2011/06/09/at-the-ruins-of-cardross-seminary-i-sat-down-and-wept/>; https://www.campobaeza.com/wp-content/uploads/2012/01/2013_2%20c2%ba-ed_principia_architectonica_eng_02_architecture-as-poetry.pdf; <https://drawingmatter.org/poetry-and-architecture-2023-review/> (Murojaat qilingan sana: 20.05.2023).

² Бадаев А.Ф. Поэтическая графика. Дисс. ... канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2005. – 227 с.; Бадаев А.Ф., Казарин Ю.В. Поэтическая графика (функционально-эстетический и лингвистический аспекты). – Екатеринбург: ИД «Союз писателей», 2007. – 188 с.; Борисова И.М. Графический облик поэзии: "лесенка", курсив, графический эквивалент текста. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Самара, 2003. – 45 с.; Бутов Р.Н. Графика в поэтическом тексте. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2010. – 35 с.; Бадаев А.Ф. Функциональные типы поэтической графики. Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2009. – 85

adabiyotshunoslikning, ham tilshunoslikning muammosi sifatida yondashganlar va bir qancha izlanishlar olib borganlar.

Milliy adabiyotshunosligimizda eng birinchi nazariy qarashlar aks etgan manbalarda³ grafik shaklning tarkibiy qismlari, ularning ma'lum davr adabiyotidagi shakllari va vazifalariga ko'ra tavsiflarni ko'ramiz.

Yangi o'zbek she'riyati bilan bog'liq tadqiqotlarda⁴ esa grafik shaklning o'ziga xosligi haqida fikr yuritilib, u bilan bog'liq yangilanishlarga davr she'riyatining spetsifik xususiyati sifatida qaraladi. Bu izlanishlarda qarashlar va yondashuvlardagi tafovutlar, turli xulosalar va fikrlar qarama-qarshiligi ham mavjud.

An'anaviy she'riyat bilan bog'liq muammolarni o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar natijasi o'laroq shakllangan adabiyotshunosligimizdagi she'r grafik shakli bilan bog'liq qarashlar formal yondashuvning natijasi bo'lib, ayrim o'rinlarda tahrirga muhtoj.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi she'r grafik shaklining ifoda imkoniyatlarini o'rganish va bu imkoniyatlardan foydalanishning faollashuv omillarini tahlil qilish, grafik shaklga xos ifodaviylikni Yangi o'zbek she'riyatining qator xususiyatlaridan biri sifatida baholash va bunday ifodaviylikning maskur adabiy davrda faollashuv sabablarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

she'r grafik shaklining badiiy nutqning boshqa shakllariga xos grafikadan farqli jihatlari va vazifalararo tafovutlarini aniqlash;

ushbu shaklining tipik xususiyatlari va vazifalarini ko'rib chiqish, uning an'anaviy she'riyatdagi ifodaviy qimmatini baholash, yangilanish tendensiyalarini yoritish;

she'r grafik shakli va uning tarkibiy qismlari haqidagi nazariy qarashlarni tanqidiy o'rganish, jahon adabiyotshunosligi tajribasiga tayangan holda uning

с.; Козлов В.И. Здание лирики: – Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет Монг, 2007. – 240 с.; Казарин А.В. Филологический анализ поэтического текста. – М.: Академический проект, 2004. – 430 с.; Макарова Л.С. Графическое оформление поэтической речи и его преобразования в переводе (graficheskoe_oformlenie_poeticheskoy_rechi_i_ego_preobrazovaniya.pdf); Борисова. И.М. О типологии графической композиции стиха (o-tipologii-graficheskoy-kompozitsii-stiha%20(2).pdf); <https://studfile.net/preview/9654130/page:23/>, <https://www.ruthenia.ru/lotman/papers/apt/10.html>; (Murojaat qilingan sana: 22.10.2021).

³ Форобий. Фозил одамлар шаҳри: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 123 б.; Ibn Sino. She'r san'ati. (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-she-r-sanati.html>); Атоуллох Хусайний. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 400 б.; Фитрат А.. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 336 б.

⁴ Хайитов А. 90- йиллар ўзбек лирикасида анъана ва шаклий изланишлар. Филол.фан.номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 64 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётда шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 281 б.; Саидғаниева Г. Истиклол даври лирикаси строфика ва ритмнинг поэтик образ яратишдаги ўрни. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент; 2011. – 138.б.; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: Adib, 2012. – 304 б.; Йўлчиев Қ. Поэтик олам сирлари. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 95 б.; Муллахўжаева Р. Тафаккур янгиланиши. – Тошкент: Muharrir, 2019. – 260 б.

yangicha ifoda imkoniyatlarini ochib berish, uning poetik mazmunga ta'sirini baholash;;

she'r grafik shakli va uning tarkibiy qismlarini tasniflash.

Tadqiqotning obyekt sifatida Yangi o'zbek she'riyati vakillari: Cho'lpon, A.Oripov, Rauf Parfi, Abdulla Sher, U.Otaboyeva, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Yo'ldosh Eshbek, Ikrom Otamurod, Xurshid Davron, Usmon Qo'chqor, Mirzo Kenjabek, Muhammad Yusuf, F.Bo'tayeva, Yahyo Tog'a, Z.Ro'ziyeva, Asqar Mahkam, H.Ahmedova, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Rustam Musurmon, Faxriyor, Iqbol Mirzo, X.Rustamova va boshqalarning ijodi olingan.

Tadqiqot predmetini she'r grafik shaklining poetik mazmun ifodasidagi roli va unga xos yangilanish masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sotsiologik, tarixiy-qiyosiy, sistem, psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ifoda ehtiyoji insonga xos doimiy faoliyat sifatida baholanib, she'riy shakllar bilan bog'liq yangilanishga ifodaviy mukammallikka erishish natijasi sifatida qaralgan. Shunga ko'ra she'r grafik shakli avvaldan davom etib kelayotgan an'ana o'laroq shakllangan tayyor qolip emas, balki mazmunning shakldagi natijasi sifatida baholangan;

Yangi o'zbek she'riyatiga xos badiiy tafakkurning butkul yangilangani va uni ifoda qilish imkoniyatiga ega yangicha ifoda vositalariga ehtiyoj grafik shakl bilan bog'liq yangilanishlarni yanada aniq tekshirishga imkon bergan;

nashr ishlaridagi tafovutlarga tanqidiy munosabat bildirilib, she'r grafik shaklining tashkillanishida muallif variantiga ustuvorlik berilgan;

she'r grafik shakli, uning tarkibiy qismlari, grafik birlik va vositalar haqidagi ilmiy xulosalarning ayrim o'rinlarda tahrirtalab ekanligi ko'rilgani holda, bu tabiiy bir jarayon sifatida baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yangi o'zbek she'riyatida she'r grafik shaklining yangicha ifoda imkoniyatlari yuzaga kelganligi aniqlangan, an'anaviy va yangilangan she'r grafik shakli orasidagi tafovutlar solishtirilgan;

she'r grafik shakli tasnifi, uning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatiga oid aniq xulosalar chiqarilgan, she'r grafik shakli va uning tarkibiy qismlari haqidagi milliy nazariy qarashlarimiz tahrirlangan, boyitilgan;

shoir va o'quvchining bir vaqtda she'r grafik shakliga nisbatan munosabatining yangilangani oydinlashgan, ifodaviy imkoniyatiga bo'lgan yangicha munosabatning mutolaa jarayogiga ta'siri baholangan;

amalga oshirilgan tahlillar asar retsepsiyasini mukammal tashkillash, o'quvchi maqsad qilgan estetik zavqni maksimal his qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dolzarb muammoni o'rganish maqsad qilingani, nazariy qarashlarda jahon va milliy adabiyotshunoslik manbalariga tayanilganligi, obyekt sifatida tanlangan adabiy davrning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Yangi o‘zbek she‘riyatining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishda, ushbu adabiy davrga mansub shoirlar ijodini keng aspektda o‘rganish, ijod va retsepsiya jarayonini qayta baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, adabiyotshunoslik nazariyasi, badiiy tahlil asoslari, hozirgi adabiy jarayon, yangi o‘zbek adabiyoti, adabiy tanqid kabi fanlar bo‘yicha ma‘ruza mashg‘ulotlari olib borish, maxsus kurs va seminarlar tashkil qilish, talabalar orasida she‘r tahlili jarayonlarini tashkillash va adabiyotshunoslik lug‘atlari tuzishda ayrim terminlarni izohlash uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. She‘r grafik shakli ifoda vositasi sifatida mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida olingan natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari she‘rlari grafik shaklining she‘r mazmuni ifodasidagi o‘rni, nashrlardagi grafik shakl bilan bog‘liq tafovutlar natijasida yuz bergan mazmuniy o‘zgarishlar haqidagi xulosalar va faktik materiallardan Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan AL-322103020 “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha web-sayt va platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanildi (Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 12-dekabrda 1645/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada nashrlarda kuzatiladigan Qo‘qon adabiy muhitiga mansub shoirlar she‘rlaridagi grafik shakl bilan bog‘liq tafovutlar tahlili ishonchliligiga erishilgan;

Abdulhamid Cho‘lponning “Somon parcha” she‘ri misolida misraning band maqomini olishi, “Go‘zal Turkiston” she‘ri misolida misrani alohida ajratib yozish, “Tabiat kitobidan” she‘ri misolida tinish belgilarining poetik vazifadorligi haqida bildirgan fikrlaridan Andijon davlat universitetida bajarilgan A-OT-2021-57 “Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi manbalarining elektron platformasini va mobil ilovasini yaratish” (2021–2022) amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan. (Andijon davlat universitetining 2023-yil 11-noyabrda 4516/02-son ma‘lumotnomasi) Dissertatsiyadagi grafik shakl poetikasini tadqiq etish natijalari loyihada Cho‘lpon she‘riy asarlarini elektron platformaga joylash davomida e‘tiborda tutildi va bu bilan ular foydalanuvchilarga to‘g‘ri yetkazilgan;

she‘r grafik shakli uning tarkibiy qismlari, uning ifoda imkoniyatlari va yangilanish tamoyillarini tushuntirishda, she‘riy asarlarni tahlil qilishda Turkiya Respublikasi Karabuk universiteti Chingiz Aytmatov Adabiyot fakulteti Turk dunyosi amaliy va tadqiqot markazi mudirligi Özbekçe ve Özbek edebiyatı derslerinde, Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Bölümünde TED730 Türk Dünyası, TRE229 Çağdaş Türk Lehçeleri 1, TRE331 Çağdaş Türk Dünyası Edebiyatı 1, TRE332 Çağdaş Türk Dünyası Edebiyatı II, TED734 Türkistan Milli Uyanış Edebiyatı darslarida foydalanilgan (Karabuk universitetining 2024-yil 27-avgustda E-66681389-108.99-377440-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada turk va o‘zbek adabiyotining o‘zaro mushtarak jihatlar haqida ma‘lumotlar olindi, mashg‘ulotlar ilmiy-nazariy fikrlar bilan boyitilgan;

badiiy asardagi ifoda vositalari, badiiy nutqda kuzatilishi tabiiy bo'lgan ayrim til sathlariga xos me'yordan og'ishlar, ifoda ehtiyoji, ifodaviy mukammallikka erishish yo'lidagi izlanishlar, grafik shakl bilan bog'liq yangilanishlarga ijodkor munosabati haqidagi xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Nazm kengashining hisobot yig'ilishlarida, uyushma qoshidagi ijodiy to'garak faoliyatida, adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 20-dekabrda 01-03/990-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarga she'r grafik shakli tushunchasi, uning ifoda imkoniyatlari haqida ma'lumotlar topishga va tasavvurlarini kengaytirishga turtki bo'lgan;

yangi o'zbek she'riyatining o'ziga xos tomonlari, xususan, Shavkat Rahmon she'riyatining shakl va mazmun uyg'unligi masalasidagi xulosalardan Andijon viloyat teleradiokompaniyasining "Xazinamsan, kitob" adabiy, ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (Andijon viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-dekabrda 01-13/245 son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv ilmiy, ma'rifiy salohiyatining yanada yaxshilanishiga, tomoshabinlarning ko'rsatuvga bo'lgan qiziqishining ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar hamda tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**She'r grafik shakli tushunchasi va poetik ifoda**" deb nomlanib u ikki faslni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli "*She'r grafik shakli va uning poetik ifoda imkoniyatlari*" haqida. She'r grafik shakli deganda she'riy nutqni yozma shaklda qayta ifodalash maqsadi o'laroq belgilarning yozuv sathi bo'ylab joylashtirilish grafigi tushuniladi. Misralarning bandlarga taqsimlanishi har qanday she'r grafik shakli uchun umumiy va matnning badiiy, xususan, she'riy nutqqa oid ekanligi haqida axborot uzatuvchi birlamchi muhim xususiyatdir. Bu esa she'r grafik shaklining boshqa matn turlariga xos grafik shakldan ko'ra ifodaviy qimmatga ega ekanligini anglatuvchi omillardan biridir. Bundan tashqari, she'r asosiy qismining misralarga taqsimlanishi, band va

misralarning o‘zaro joylashuv grafigi, yozuv shakllari, orfografik me‘yorlardan og‘ish va tinish belgilarining poetik mazmun ifodasidagi roli har bir she‘rda takrorlanmas, faqat shu she‘r uchun mohiyat kasb etuvchi grafik shaklni tashkillash vositasi hamdir.

Jahon adabiyotshunosligida she‘r grafik shaklining ifodaviy faolligidan keng foydalanish maqsadida uning maxsus tashkillanishiga nisbatan “she‘r arxitektonikasi” istilohi qo‘llanadi. Xususan, “...She‘riyatda arxitektonika istilohining “Bino tuzilishi va bezaklarni o‘zaro moslashadigan usul yoki uslub” mazmuni yetakchilik qiladi. Ya‘ni, bu o‘rinda, biror narsani qurish san‘ati va ilmi haqida emas, balki uni tartibga solish va **bezak berish** haqida so‘z boradi...”⁵. “Arxitektonika – bu adabiy asarning bir butun sifatidagi tashqi qurilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va elementlarining munosabatlari”⁶ deyiladi. Ko‘rinadiki, jahon adabiyotshunosligidagi she‘r arxitektonikasi va she‘r grafik shaklining biz yuqorida nazarda tutgan funksiyalari bir xil mohiyat kasb etadi.

Adabiyotshunosligimizdagi strofika (she‘rlarni bandlarga ajratish) – she‘r grafik shaklining tarkibiy qismidir. She‘r grafik shakli strofika kabi faqat she‘rning bandlarga ajratilishi yoki ajratilmasligi, misralarning bandlarga taqsimlanishidagina iborat emas. U strofikadan tashqari:

1. She‘r asosiy qismining yaxlit ko‘rinishi (asosan bandlarga ajratilmagan she‘rlarda).

2. Bandlarning tashkillanishi:

A. Band chegarasi.

B. Bandlarning bir-biriga nisbatan joylashuv grafigi.

3. Misra shakli:

A. Misraning shakli qurilishi.

B. Misralarning o‘zaro joylashuvi.

4. An‘anaviy she‘r grafikasi uchun begona bo‘lgan har qanday grafik yangilanish (masalan, misralarning kichik harflar bilan boshlanishi)ni qamrab oladi.

She‘rning grafik shakli grafik birliklar va grafik vositalarning o‘zaro munosabati asosida voqelanadi. Shunga ko‘ra she‘r grafik shakli:

1. Grafik birliklar: she‘r matnining umumiy qurilishi, band va misralar shakli, ularning boshqa bo‘laklarga nisbatan joylashuvi.

2. Grafik vositalar: matn yozuvidan farqli yozuv shakli (bosh harflar bilan yozish, harflar orasida bo‘shliq qoldirish, kursiv v.b.), yozuvda geometrik shakllar hosil qilish, orfografik me‘yorlardan og‘ish, tinish belgilaridan iborat bo‘ladi.

Poetik nutq boshqa nutq shakllarida ham deyarli birdek qo‘llanadigan shakli vositalar orqali amalga oshirilsa ham, ulardan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra farqlanadi. U ma‘lumot uzatishnigina emas, estetik zavq berishni ham maqsad qiladi. Ahamiyatli jihati shundaki, nutqning bu shakli maqsadi kabi unga erishish usullarining o‘zgachaligi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, o‘quvchi tomonidan

⁵ [Internet resurs]. Достоевский: Эстетика и поэтика: Словарь-справочник / Сост. Г.К.Щенников, А.А.Алексеев; науч. ред. Г.К.Щенников. Челябинск: Металл, 1997. – Б. 131. (<https://fedordostoevsky.ru/research/aesthetics-poetics/131/>) (Murojaat qilingan sana: 20.05.2022).

⁶ O‘sha manba – B 131. (Murojaat qilingan sana: 20.05.2022).

qayta faollashtirilishi, maqsad qilingan kechinmaning mukammal aniqligi poetik nutq ifodaviyligiga yuklatilgan eng muhim majburiyatlardan biridir. Badiiy nutqqa qo'yilgan qator talablar poetik ifodadan mukammallikni, ifoda vositalaridan to'liq quvvat bilan foydalanishni, qolaversa, maqsad yo'lida doimiy izlanish va yangicha yondashuvni talab qiladi.

Fikr va tuyg'u ifodasi uchun nutqning og'zaki shakli bizga ma'lum ifoda vositalarining eng mukammalidir. Bu jarayon mukammallik bilan bir vaqtda o'ziga xos murakkablikka ham ega. Og'zaki nutq momentida so'zlovchining ruhiy holati va hissiy munosabati sabab yuzaga kelayotgan intonatsiya, to'xtam va yuz-ko'z harakatlari (mimika) ham ifodaviy ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq qanchalik mukammal bo'lmasin, uning tarqalish doirasini kengaytirish va nutqiy vaziyatning saqlanish muddatini uzaytirish ehtiyoji tufayli uning yozuvdagi ifodasi vujudga keldi. Nutqning yozma shakli bilan birga yuqorida sanalgan og'zaki nutq momentidagina mavjud paralingvistik ifoda vositalarini yozuvda qayta kodlash muammosi ham paydo bo'ldi. Belgilarning yozuv sathi bo'ylab joylashuvi – grafik shakl ayni shu muammoni hal qilish va ifodaviy mukammallikka erishish yo'lidagi urinishlar natijasida yuzaga keldi. Bu esa og'zaki nutqning yozuv vositasida shakllantirilgan moddiy ko'rinishiga – grafik shaklga ifoda vositasi deya qarashga asos bo'ladi.

Badiiy nutqning har qanday shaklini yozuvda ifoda etish imkoni mavjud bo'lsa-da, grafik shaklning ifodaviy faolligi adabiy turlararo turlicha namoyon bo'ladi. Grafik shaklning ifodaviy faolligi va ahamiyati she'riy yo'lda bitilgan asarda, yana ham aniqrog'i, lirik asarda eng yuksak darajada namoyon bo'ladi. Buning asosiy sababini alohida qurilishga ega she'riy nutq va kechinma ifodasiga xos murakkablikning ustma-ust tushishida ko'rinadi.

She'r grafik shakliga xos ifodaviy xususiyatlar hamma vaqt bir qarashda anglanavermaydi. Uning qay darajada faollashuvi ko'p jihatdan o'quvchining munosabatiga bog'liq. Chunki grafik vositalar bilan bog'liq yangilanishlar ifodaviy faollikka erishsa-da, hali butun o'quvchi ommasini uchun qat'iy signal shakliga aylanganicha yo'q. Shu sababga ko'ra, bu xususiyatlarni grafik shaklning ifodaviy imkoniyatlarining kengayishi sifatida qarab, alohida tasniflash o'rinli bo'ladi.

Bobning **“She'r grafik shaklining poetik ifoda vositasi sifatida faollashuv omillari”** deb nomlangan ikkinchi faslida quyidagilar haqida so'z boradi: Insonga xos ifoda ehtiyoji tafakkur bilan o'zaro algoritmik munosabatda bo'lib, bir-birisiz mavjud emas. Aniqroq aytilsa, ifoda tafakkurning mantiqiy davomidir. Boshqa bir tomondan, bu ikki jarayonni parallel kechadigan dialektik munosabatdagi hodisalar deyish to'g'ri bo'ladi. Inson ongida kechayotgan har qanday fikrni ifoda qilish bilan birga uning o'zi bu jarayonning qay darajada amalga oshayotganini nazorat qiluvchi ikkinchi tomon vazifasini ham bajaradi. Ifodani qayta (ifoda qay shaklda bo'lishidan qat'i nazar) ko'rib chiqqan yaratuvchi uning ifodaviy qimmatini ongidagi mazmunga mos ko'rgan taqdirdagina adresatga taqdim qiladi.

XX asr avvalidan boshlab yurtimizda kitobat qilish – badiiy matnini o'quvchiga yetkazish imkoniyatlari shiddat bilan rivojlandi, qisqa bir davrda litografiyadan tipografiyaga, undan raqamli texnologiyalarga o'tildi. Yozuv

vositalarining yangilanib borishi esa, tabiiyki, she'riyatning ham shunga mos yangilanishini taqozo etadi.

XIX asr o'rtalarida mamlakatimiz hududiga tipografiyaning kirib kelishi va tezkor rivojlanishi:

1) matn grafik qurilishining aynan ijodkor o'zi tashkillagan shaklda o'quvchiga uzatilishi;

2) matn nusxalari orasida grafik jihatdan tafovutlarning keskin kamayishi kabi ikki muhim natija berdi.

Jamiyatimizda kompyuterlarning yozuv vositasi sifatidagi vazifasining faollashuvi ijod jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta.

Omadliman mana qarshimda

Kompyuter-u, stol va qog'oz⁷.

Bu ijodkorga asarni erkin va qulay sharoitda tahrirlash imkoniyatini berdi. Bundan tashqari kompyuter dasturlarida mavjud yozuvning turli shakllari shoir uchun ifoda vositasiga aylandi. Eng ahamiyatli jihati shuki, shoirda kompyuterda terilgan matnni, o'z she'rini, bosma shaklda qanday ko'rinishda bo'lishi haqida to'la tasavvurga ega bo'lish imkoniyati shakllandi. Shunga ko'ra, u o'zi badiiy maqsad qilgan mazmunni to'la ifoda eta oladigan matn shaklini yaratish va o'zgarishsiz uzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Grafik shakl ifoda imkoniyatlarining faollashuvi Yangi o'zbek she'riyatining shakllanishi bilan birga kechdi va mos ravishda birga rivojlandi. O'zbek she'riyatida yuz bergan yangilanishlar she'rning tashqi qurilishiga ham yangicha yondashuvni talab qiladi. Bugungi kun she'riyatida grafik shakl mazmundan avval tayyor bo'lgan qolip emas, balki ifoda vositasiga aylandi. U, eng avvalo, mazmunning natijasi, qolaversa, she'riy nutqqa xos ixchamlik va zichlikka putur yetkazuvchi tafsilotlar va yondosh matnlarni ifodalashning o'ziga xos yo'li bo'lib xizmat qilmoqda. Yangi she'riyat uchun, mumtoz adabiyotimizdan farqli o'laroq, har bir she'rning konkret grafik shakli mavjud. Ya'ni, grafik shakl faqat shu she'r uchun qimmatga ega bo'lib, u ijodkor nazdida ifoda etilishi ko'zlangan mazmunni yetkazish uchun eng maqbul shakldir.

Adabiyotimiz tarixida aruz vaznida yozilgan ko'plab mukammal lirik asarlar borligini ta'kidlash bilan birga, shuni ham aytish kerakki, uning mazmun va shaklga qo'ygan talablari shu darajada qat'iy bo'lib, ijodkor mazmundan avval vazn va shakl talabi bilan hisoblashishga majbur edi. Butun aruz nazariyasida yagona mohiyat – “vaznga majburlash” asosida birlashadigan “vasl, imola, sakta, taslim, taznib, tag'yir” deb ataladigan qator hodisalar fikrimizning dalili bo'la oladi. Bu hodisalarning umumiy mohiyati vazn talabini bajarish uchun so'z, yoki so'zlarga o'zgarish kiritish, ularning talaffuz chegarasini qayta taqsimlash bo'lsa-da, bu muammoning hammasi emas. Ayni holdagi eng muhim muammo qilingan o'zgarishlarning she'r grafik shaklida ifoda qilinmasligidir. O'quvchi mutolaa vaqtida yuqoridagi kabi holga duch kelsa, u ikki yo'l:

a) nutq irod etishni davom ettirish(vaznni saqlash)ni;

b) ritmni buzib, bayt mazmunini anglashdan birini tanlashi kerak.

⁷ [Intenet resurs]. Usmon Azimning she'riy konserti. URL: <https://youtu.be> (Murojaat qilingan sana:12.12.2022).

Bu o‘rinda qoliplashgan she’riy shaklni inkor etish ham bir qadar noo‘rin. Bu qonuniyatlar ham o‘z davri uchun benihoya qimmatlidir. Bundan tashqari, “...yangilangan ijtimoiy-tarixiy sharoitda yashayotgan inson qalbini aks ettirish uchun she’riyatni ham shunga muvofiq isloh qilish zarurati yuzaga keldi...”⁸ har sohada yangilanishlarni anglagan (yana qanday sharoitda – uzoq vaqt og‘ir turmush tarzidan zada bo‘lib har qanday siljish katta bir yangilanish deya baholaydigan bir vaqtda) kishining ruhiyati o‘tmishidagi har qanday an‘ana va aqidalarga tanqidiy nazar bilan qarar ekan, besaranjomlik, jo‘shqinlik, harakat xohishi kabi qator holatlar ham uning ruhiyatida birdek aks etadi. Masalan:

Yurakda umidlar, alamlar...
To‘zimsiz qirg‘oqni bosarkan,
Nega men chaqmoqday yugurmay?!
Eskigan, chirigan tamallar,
Yo‘qlikka egri yo‘l yasarkan,
Nega men undan yuz o‘girmay?!

Ko‘nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,
Yosh yo‘llar, yosh gullar izlayman.
Orqaga tortganga hadyam – tosh,
Har choq men ilgari undayman...⁹

She’r tematik kompozitsiyasini tashkillash uchun misralarning bandlarga maxsus taqsimlanishi (6/4), lirik qahramon kayfiyati va kechinmaga mos ritm, intonatsiyani shakllantirgan tinish belgilari, xususan, bir necha muqobil tinish belgilari orasidan bittasining (...) tanlanishi va qo‘shaloq qo‘llanishi bilan bog‘liq o‘rinlar lirik qahramon ruhiyatiga xos dinamikani ifodalashda grafik shaklning ifoda vositasi sifatida faollashuvini ko‘rsatadi.

Avom xalqni uyg‘otishni maqsad qilgan jadid adabiyoti, mumtoz adabiyotimizdan farqli, xalqning og‘ir ahvoliga oyna tutishdek keskin yo‘ldan bordi. U vazmin, donishmandona ohang – didaktikadan kinoya va achchiq ta’naga boy dinamik ohangni tanladi. Natijada she’riyatimizda notiqlik san’ati belgilari paydo bo‘ldi. “Notiq ishontirishga dalillash bilan, zavqlantirishga uslubning go‘zalligi hisobiga, o‘z izmiga solishga esa kuchli ehtiros yordamida erishar edi. Jadid shoirlari she’riy nutq irod etarkan, ishontirish va o‘z izmiga solishga asosiy e’tiborni qaratadilar, zavqlantirish maqsadi esa bularning soyasida qoladi. Natijada she’rning shakliy xususiyatlari, uslubi va tili ham shunga muvofiq ko‘rinish oladi”¹⁰.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib she’riyatning ijtimoiylashuvi uni alohida badiiy nutq uslubidan so‘zlashuv uslubiga yaqinlashuviga ham sabab bo‘ldi. Badiiy asarlar tilining jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlasha boshlashi Yevropada XVII - XVIII asrlarda, bizda esa XX asr boshlaridan kuzatiladi¹¹. Jonli so‘zlashuv uslubi nutqning boshqa uslublaridan nafaqat gap qurilishi,

⁸ Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Adib, 2012. – Б. 5.

⁹ XX аср ўзбек шеърляти антологияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2007. – Б. 29.

¹⁰ Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Adib, 2012. – Б. 46.

¹¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 236.

soʻzlarning xoslanishi, balki nutqning ritmik-intonatsion qurilishi bilan ham farqlanadi. Sheʼr grafik shakli, eng avvalo, nutqning ritmik-intonatsion qurilishini tashkillashni maqsad qilishini inobatga olsak, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi sheʼriyat xususida aytilgan “Shakl bobidagi izlanishlar, eng avvalo, sheʼrning ritmik-intonatsion sathida koʻzga tashlanadi... Bu oʻrinda sheʼr oʻlchovlari va sheʼr shakllaridan jonli tilga, xalq ijodidagi ohanglarga eng yaqinlarining keng isteʼfoda etilishini nazarda tutmoqdaman”¹², – deydi adabiyotshunos U.Hamdami. Maxsus tashkillangan badiiy nutqdan farqli “jonli til” nutq momentiga mos tashkillanishi bilan farqlanadi. Yaʼni, uning qanday ritmik-intonatsion qurilishini boshqarib turuvchi yagona mezon nutq momentiga mos tashkillanishidir.

Dissertatsiyaning **“Sheʼrning grafik kompozitsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan iborat boʻlib, birinchi fasl **“Band va misralning grafik shakli poetik ifoda vositasi sifatida”** deb ataladi. Badiiy asarning epik va dramatik turlari kompozitsiyasi qanchalik aniq koʻrinib, tabiiy qabul qilinsa, lirik asar kompozitsiyasi masalasi shunchalik mavhum tushunchadek tasavvur uygʻotadi. Buning asosiy sababi, kompozitsiyani yolgʻiz voqeabandlikka nisbatan tatbiq qilinishi va lirik asarning, aksincha, kechinma vositasida ish koʻrishi bilan bogʻliq. Yuqoridagi ikki turdan farqli “...lirik sheʼr kompozitsiyasining uchta aspekti: tashqi (matniy), tematik, ritmik-intonatsion qurilishi”¹³ning barchasi birdek sheʼr grafik shakli vositasida ifodalanadi.

Band (strofa)ning avvaldan maʼlum qatʼiy qoidalar asosida tashkillanishi sharq va jahon anʼanaviy bandshunosligining umumiy jihatlaridan biridir. Jahon adabiyotida sonet, elegiya, xokku v.b, mumtoz adabiyotimizdagi tuyuq, fard va musammatlar tizimi kabilar fikrimizning dalili boʻla oladi. Maʼlumki, “...sheʼrshunoslikning band haqida bahs etuvchi boʻlagiga nisbatan “strofika” atamasi qoʻllanib kelinadi”¹⁴. Bu istiloh lugʻatda berilgan maʼnosiga mos “...Sheʼriy misralarning bandga birikish tamoyillari (hajm, jumla qurilishi, ritmik kompozitsiya) va qonuniyatlari, shuningdek, qatʼiy band tuzilishi (strofik)ga ega va ega boʻlmagan (astrofik) sheʼr shakllari, shakliy belgilariga koʻra tasniflanuvchi qatʼiy sheʼriy shakllarni oʻrganadi”¹⁵. Koʻrinib turibdiki, bu atama “sheʼrning grafik shakli” istilohiga nisbatan torroqdir. Strofika sheʼr grafik shakliga xos xususiyatlarni toʻla ifoda eta olmaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, strofika tayyor shaklga tayanib ish koʻrsa, biz nazarda tutgan sheʼr grafikasi oʻquvchiga taqdim qilingan shaklni yuzaga kelish sabablari, koʻzlangan maqsad haqida soʻz yuritadi. Shunga koʻra, strofikani sheʼr grafikasining tarkibiy qismi, deya baholash oʻrinli boʻladi.

Sheʼrni strofik va astrofik turlarga ajratish ham uning shakliy koʻrinishlariga tayanilgan holda amalga oshirilgan tasnif xolos. Aslida, sheʼrning bir qarashda anglandigan bu ikki shakldan qay biriga mansub boʻlishini ijodkorning ifodaviy maqsadi boshqarib turadi, deyish mumkin. Anʼanaviy sheʼr shaklida misralarni

¹² Хамдам У. Янги ўзбек шеърияси. – Тошкент: Adib, 2012. – Б.199.

¹³ Куронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 39.

¹⁴ Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 285.

¹⁵ Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 285.

yoʻzuv sathi boʻylab chap tomonga tekislash odat tusiga kirgan. Misra sheʼrning ritmik-intonatsion qurilishini ifoda qilsa-da, bunday tashkillangan grafik shakl ritm uchun misra intonatsiyasining hamma qismlari birdek ahamiyatli emasligini anglatadi. Misralarning boshlanish chegarasini asos sifatida olib chap tomonga bir tekis joylashdan ohangdagi ritm uchun misra boshidagi zarb tayanch nuqta boʻlayotganini koʻrish mumkin. Misra intonatsiyasining qay oʻrinda koʻtarilishi yoki qolgan qismlarga nisbatan qanday yakunlanishi u qadar ahamiyatli emas. Faxriyorning “Yoziq” sheʼri misralari boshdan oxirigacha oʻng tomonga tekislangan. Sheʼr bir bandining oʻziyoq bunday grafik shakl ifoda maqsadi oʻlaroq tashkillanganligini tasdiqlaydi.

Devor – kar,
eshitmas.
Quduq – gʻor
beshikmas.¹⁶

Agar misra odatdagidek chap tomonga tekislanganda:

1. Bu oʻrinda misra va gap birliklari ustma-ust tushadi. Bu esa misraning yakunlanuvchi (boshidan oxiriga qarab pasayib boruvchi) ohang bilan oʻqilishiga sabab boʻladi.

2. Biz tematik jihatdan muhim deb baholagan ikki soʻz bir boʻgʻindan iborat. Bu esa oʻzbek tilining fonetik xususiyatlariga koʻra yuqoridagi soʻzlarni soʻz urgʻusidan “mahrum qiladi”. Shu ikki sabab tashkillagan ohangga koʻra misra soʻngi urgʻulanmaydi va misra soʻngidagi soʻzlardan anglangan mazmunning muhimlik darajasi pasayadi. Ikkinchi misradagi feʼl boʻlishsizlik shaklida. Shu sababdan bu soʻzning oxirgi boʻgʻini ham urgʻulanmaydi. Ammo lirik qahramon kechinmasiga sabab boʻlayotgan voqelik oʻsha nuqtada anglanadi. Yaʼni “devorning qulogʻi bor”. U eshitishi kerak edi. Toʻrtinchi misrada ham shunday mohiyatni koʻrish mumkin. Ijodkorda mukammal ifoda uchun til xususiyatlari nuqtai nazaridan urgʻulanmaydigan qismlarni urgʻulash ehtiyoji yuzaga keladi. Bu masala esa misralarni oʻng tomonga tekislash bilan hal qilinadi.

“Sheʼrning alohida satrga joylashtirilgan boʻlagi misra deb yuritiladi... biroq uning misra deb atalishi uchun katta-kichikligining ahamiyati yoʻq. Misra oxirida zarb boʻlishi, oʻzidan soʻng sezilarli pauza mavjudligi bilan xarakterlanadi...”¹⁷. Misraning odatiy shakli sheʼr yozilayotgan vazn qonuniyatlari asosida shakllanadi. Aruz vaznida bahr, barmoq vaznida boʻgʻinlar soni va turoqning takrori misra shaklini belgilovchi mezon boʻlib xizmat qiladi. Bu ikki vaznda bahr qonuniyatlarining buzilishi yoki boʻgʻinlar sonining boshqa misralardan farqli boʻlishi sheʼrning ohangdorligi va oʻqilishidagi ravonlikka putur yetkazadi, sheʼriy nutqni buzadi. Lekin vazn talablarini buzmaganda holda misra shaklini oʻzgartirish bilan sheʼr mazmuniga taʼsir qilish hollari ham kuzatiladi. Va albatta, bunday hollar atayinlik xususiyatiga ega boʻlib, maʼlum badiiy maqsad koʻzlangan boʻladi:

Mana, ming yillarki	6
Sohilda yotgan	5

¹⁶ Фахриёр. Аёлғу. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 43.

¹⁷ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademya, 2018. – B. 313.

Qaqragan bu toshga suv tekkani yo‘q.	6+5
Quyoshning	3
Olovli selida qotgan,	8
Chekkani ohi yo‘q	6
Oh chekkani yo‘q.	5 ¹⁸

She‘rdan olingan parchani shoir barmoq vazni qonuniyatlari asosida to‘rt misra ko‘rinishida shakllantirishi mumkin edi. Bunda misralardagi bo‘g‘inlar 11 tani tashkil qilib, misralar 6+5 shaklida tartiblangan bo‘lar edi. Hozirgi holda esa birinchi, ikkinchi, oltinchi va yettinchi satrlarning bo‘g‘inlar soniga tayanib misralar turoq chegarasidan ikki qismga ajratilgan deyish mumkin bo‘lsa-da, butun holda saqlangan uchinchi misra va 6+5 tartibi buzilayotgan to‘rtinchi va beshinchi satrlar she‘rning bunday grafik shakllantirilishida atayinlik borligi, ya‘ni bundan ma‘lum badiiy maqsad ko‘zlanganiga ishora qiladi.

E‘tibor berilsa, 1-, 2-, 4-, 5-, 6- va 7- satrlarni bejiz misra deb baholamadik. Chunki 1-2 satrlar birinchi; 4-5-satrlar uchinchi; 6-7-satrlar to‘rtinchi misrani tashkil qiladi. “...har bir so‘z yoki so‘z birikmasi alohida satrga joylangan bo‘lsa, ularning hammasini misra, deyish to‘g‘ri bo‘lavermaydi, chunki ularda zarb bo‘lgani holda, misra pauzasi mavjud emas”¹⁹. Bu o‘rinda ham shakliy, ham intonatsion jihatdan yaxlit misrani ikki satr shaklida bo‘lib ifodalashdan ko‘zlangan ma‘lum badiiy maqsad mavjud. Bu maqsad esa ijodkor muhim deya sanagan qismni ajratib ko‘rsatishdir. Satrga bo‘lingan qism alohida zarb bilan o‘qiladi va o‘z navbatida o‘quvchining diqqatini tortadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Matn yozuvi (kalligrafiyasi) ifoda vositasi”** deb nomlanadi. “Matn yozuvi – kalligrafiyasi (shrift, qo‘l yozma yoki bosma shakldagi yozuv uslubi”²⁰, bosh harflar bilan yozish, harflar orasida bo‘shliq qoldirish va b.), yozuvda geometrik shakllar hosil qilish, orfografik me‘yorlardan og‘ish, tinish belgilari kabilar poetik ifoda vositalari hisoblanadi.

Yozuv turlari, xususan, kalligrafiya bilan shug‘ullanish qadimdan alohida soha – san‘at turi sifatida ko‘rilgan. Soha mutaxassisleri – xattotlarning mahorati esa ularning qanchalik ko‘p yozuv shaklini bilishi, qolaversa, ulardan qay darajada o‘rinli foydalana olishiga qarab baholangan.

XIX asr o‘rtalarida mamlakatimiz hududiga tipografiyaning kirib kelishi va tezkor rivojlanishi:

1) ijodkorga yaratilajak asarining o‘quvchi qo‘lida qanday shaklda bo‘lishi haqidagi yaxlit tasavvurga egaligi;

2) o‘quvchiga matn grafik qurilishining aynan ijodkor o‘zi tashkillagan shaklda, hech bir o‘zgarishsiz uzatilishi;

3) matn nusxalari orasida grafik jihatdan tafovutlarning keskin kamayishi kabi qator muhim natijalarga olib keldi.

Bir so‘zning bir she‘rda turli yozuv shakllari bilan ifodalanishi orqali faollashgan mazmunlarni solishtirish masalani yanada oydinlashtiradi.

Payg‘ambar eshigin taqillatgan men,

¹⁸ Кўчкор У. Уйқудаги минора.– Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б 8.

¹⁹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 314.

²⁰[Internet resurs]. Каллиграфия – Википедия. URL: <https://ru.wikipedia.org> (Murojaat qilingan sana:12.12.2022).

Shaytonni o‘ttiz yil laqillatgan men,
Qo‘ynida hurlarni so‘lqillatgan men,
Sen, axir, nimasan? NIMAsan, o‘lim²¹.

Bandning oxirgi misrasida “nimasan” so‘zining ikki o‘rinda bir-biridan farqli yozuv shakli bilan takrorlanganini ko‘rish mumkin. Birinchi so‘z amaldagi orfografik me‘yorlar asosida yozilgan bo‘lsa, ikkinchi so‘zning asosidagi har bir harf bosh harf bilan yozilgan. Ayni shakl bilan ikki poetik maqsad:

1. Ikki so‘zning bir-biridan farqli mazmun ifoda etganini.
2. Ikki mazmundan birining urg‘ulanganligi, mazmuniy ustuvorlik berilganligini ifodalash ko‘zlangan.

Dastlabki uch misrada ijodkor o‘zining kim ekanligini ta’kidlagan. To‘rtinchi misraga kelib esa o‘limga qarata “Sen, axir, nimasan?” savoli bilan undaladi. Bu esa lirik qahramonning “o‘lim” bilan ziddiyatda ekanligini oydinlashtiradi. Ayni vaqtda lirik qahramonda raqibining pozitsiyasiga oydinlik kiritish ehtiyoji ham bor. To‘rtinchi misraning ikkinchi qismida lirik qahramon o‘zi uchun o‘limning pozitsiyasini belgilaydi. Navbatdagi “NIMA” so‘roq olmoshidan so‘ng so‘roq belgisining qo‘yilmagani jumlaning hukm, darak ma’nosida ekanligiga ishora qiladi. Ya’ni, lirik qahramon o‘limni “NIMA” (predmet) sifatida ko‘radi. Bu bilan avvalgi uch misrada o‘zini loyiq ko‘rgan baland pozitsiyalar oldida uning “hech narsa” emasligini ta’kidlaydi. She’rning so‘nggi bandida yozuv kalligrafiyasining ifodaviyligi yanada aniqroq namoyon bo‘ladi.

Og‘zidan yuz bulbul uchirolgan men,
Isoni Ka’baga ko‘chirolgan men,
Ko‘nglini xudoga ichirolgan men,
Men KIMman. Sen esa, NIMAsan, o‘lim.²²

Tilshunoslik qoidalariga ko‘ra shaxs (Kim?) va narsa (Nima?) otlariga nisbatan qo‘llanuvchi olmoshlarning alohida yozuv shakli bilan ifodalanishi “INSON” va “O‘LIM” o‘rtasidagi azaliy ziddiyatga ijodkorning o‘ziga xos munosabatini ifodalash uchun vosita sifatida xizmat qilgan.

U.Azimning “So‘nggi so‘z” she’ri E.Shukurning yuqoridagi she’riga munosabat o‘laroq yozilgan. Va bu ikki she’r o‘rtasidagi intertekstual aloqa yuzaga kelgan.

Eshqobil SHUKUR she’riga
Hayotdan hech qachon qilmaymiz gina,
Savol bersak hamki, kajraftor jimdir.
Ukajon, aslida o‘lim-ku NIMA,
Ammo bevaqt o‘lim hamisha KIMDIR.²³

“Eshqobil SHUKUR she’riga” izohining o‘zigina matnlararo aloqani ta’minlash uchun yetarli emas. Chunki bu o‘rinda shoirning ayni qaysi she’ri xususida so‘z borayotgani ochiqlanmagan. Ammo E.Shukur she’ridagi ayrim obrazlar ifodasiga xos yozuv shaklining U.Azim she’ridagi takrori she’rdagi qator

²¹ Шукур Э. Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.167.

²² О‘sha манба. – Б.167.

²³ АЗИМ У. ФОНУС. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 159.

tafsilotlarga o‘rin qoldirmagan. E.Shukur she‘ri va she‘rning grafik shaklidan xabardor o‘quvchi U.Azim she‘rini hech bir qiyinchiliksiz qabul qiladi. She‘rning tafsilotlardan holi ekanligi uning sarlavhasiga mos “So‘ngi so‘z” (hukm) o‘laroq qabul qilinishiga xizmat qiladi. Yozuvning alohida shakli vositasida bir so‘zga xos polisemantiklik yoki omonimlik bilan bog‘liq “so‘z o‘yini”ga ishora qilinishi, uning anglanmay qolinishining oldi olinishi ham mumkin. Bunday hollarda so‘z bilan bog‘liq barcha ma‘nolar she‘r matnida ahamiyatga ega bo‘laveradiki, buni so‘z o‘yini emas, balki ijodkorga xos poetik mahorat, deya baholash o‘rinli bo‘ladi.

Kutayotgan farzanding menmi
erta bir kun tug‘ilsam,
otimni ne qo‘yursan.
mashrab debmi
yo xorazimshohday
o t s i z bo‘lurmanmi men.²⁴

“She‘r qancha qisqa bo‘lsa, unda aytilmasdan ishora qilingan narsalar shuncha ko‘p bo‘ladi”²⁵. Nazarda tutilgan ko‘p ma‘nolilikka grafik vositalar orqali ishora qilish yangi o‘zbek she‘riyatining muhim belgilaridan biridir;

“Xorazmshoh” va “o t s i z” jumalari so‘z tarixiy shaxs xususida ketayotganday tasavvur uyg‘otsa-da, “o t s i z”ning kichik harf bilan boshlanishi, qolaversa, alohida yozuv shakliga ega ekanligi (harflar orasining ochiq qoldirilishi) masalaga o‘zgacha yondashuvni talab qiladi.

“o t s i z” so‘ziga xos omonimlik va ko‘p ma‘nolilik xususiyatga ko‘ra quyidagi mazmunlarni anglash mumkin:

I. “otimni ne qo‘yursan”, “yo xorazmshohday o t s i z bo‘lurmanmi men” parchalariga tayanilsa, lirik qahramondagi o‘zining nomsiz qolishi, ma‘lum nom bilan atalsa-da, tarix sahnasida alohida e‘tirof etilmaslik qayg‘usini anglash mumkin. Ya‘ni, umumiy obzorda mavjud, ammo alohida qaralganda qimmatga ega emasdek.

II. Shohlik maqomiga ega bo‘lsa-da, ta‘sir etish kuchiga ega emas hukmdor obrazi (Ot-ulovsiz hukmdor) vositasida jamiyatda ma‘lum maqomga ega, lekin ta‘sir kuchiga ega bo‘lmagan shaxsga ishora. (Vatanimiz tarixidagi bir talay qo‘g‘irchoq xonlar kabi)

III. Tarixiy shaxs 1127–1156-yillarda hukmronlik qilgan Al-Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin Otsiz. Xorazmshoh Otsiz o‘ziga qadar bo‘lgan ajdodlaridan farqli Xorazmshohlar davlatini rasman tashkil qilinganligini e‘lon qiladi. Bu o‘rinda “o t s i z bo‘lurmanmi men” mis rasi nisbiy mustaqil mazmun kasb etib, lirik qahramonning o‘z kelajagi xususidagi ijobiy(buyuk) taxminlarini ifoda qiladi. I, II (salbiy) va III (ijobiy) jihatlar orasidagi zidlik lirik qahramon ruhiyatida kechayotgan ertangi kun qayg‘usini ifodalagan. Ahamiyatli jihati esa bu ruhiy holat yuqoridagi uch mazmunning barchasi bir vaqtda faollashgandagina

²⁴ Фаҳриёр. Аёлғу. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б 165

²⁵ Йўлдошев Қ. Тешик қалқон / Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 104.

ro'yobga chiqadi. So'zga xos bunday polifunksionallik uning o'ziga xos yozuv shakli vositasida tashkillangan.

Misra va bandga xos odatiy shakllarning yangilanishi, she'r matniga yangicha kalligrafik shakllarning joriy qilinishi ifodaviy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda she'r tushunchasiga xos azaliy xususiyatlarga bir qadar dahl qildi. Buning asosiy sababi shoir ikkinchi tomonni avvalgidek tinglovchi emas, faqat o'quvchi sifatida ko'rishidir. Uning eng yuqori ifodaviy faolligini faqat mutolaa vaqtidagina ko'rish vositasida anglash mumkin. Ya'ni ayrim band va misra shakllari, kalligrafik ifodalar faqat yozuvdagina qimmatga ega bo'ldi. Ularni og'zaki nutqda ifodalashning imkoni majud emas. Oqibat nazarda tutilgan o'rinlarda she'rning ijroga xoslanganlik xususiyati o'z qimmatini yo'qotdi.

“She'r grafikasi intanotsion kod sifatida” deb nomlangan uchinchi bobining birinchi fasli **“Tinish belgilarining poetik ifoda imkoniyatiga doir”**dir. Tinish belgilari “yozuv tekstida leksik va sintaktik vositalar bilan ifodalanishi mumkin bo'lmagan ma'noni, ma'no ottenkalarini ifodalash”²⁶ ehtiyoji o'laroq joriy qilingan. Ammo bugungi tilshunoslik ularga ko'proq gapda turli sintaktik birliklarning o'zaro grammatik-mazmuniy aloqalarini rasmiylashtiruvchi vosita sifatida qarashi va bunday qarashning ko'pchilikda stereotip ko'rinishini olgani kuzatiladi. Mavjud me'yorlardan atayin (muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab) og'ish umuman poetik ifoda vositalari (fonopoetik vositalar, so'z takrori, sintaktik usullar va b.)ni yuzaga keltirish sharti bo'lganidek, tinish belgilarini ham ifoda vositasiga aylantiradi. Amaldagi me'yorlarni qat'iy va mukammal deb bilgan adresant og'ish (yoki xato) deb qabul qilgan holat undan ifoda maqsadida foydalanayotgan shoir uchun normadir. Chunki ijodkor bu og'ishni ongli ravishda amalga oshiradi, aytmoqchi bo'lganini o'quvchiga yetkazishni shunga – qoidaga xilof ishlatilgan tinish belgisiga yuklaydi.

Tinish belgilarini ifoda vositasi deya baholash uning imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligiga ishora qiladi. Badiiy asar tarkibida uchragan tinish belgilarining barchasi ifoda vositasi bo'lsa-da, ularning hammasi ham poetik ifoda vositasi bo'lavermaydi deyish to'g'ri bo'ladi.

Ammo bu badiiy nutqda tinish belgilarining amaldagi me'yorlarga mos qo'llangan o'rinlarni poetik mazmun ifodasida butkul qimmatga ega emas deyishga asos bo'lmasligi kerak. She'riy matnda tinish belgilaridan amaldagi me'yorlarga zid yoki mos qo'llanishidan qat'i nazar:

1. Lirik qahramon ruhiy holatidagi tebranishlarni.
2. Ijodkorning kechinmaga nisbatan subyektiv munosabatini.
3. Nutq momentidagi nutqiy sharoitni ifoda qilishda keng foydalaniladi.

Alvido, zaminda beparvo kezgan,
Temirga sig'ingan buyuk odamzod!²⁷

Bir qarashda “Alvido”dan keyin qo'llangan “,” amaldagi “So'z-gaplar undov so'zlar, tasdiq-inkor so'z va taqlid so'zlar bilan ifodalanadi. Ushbu so'zlar gap tarkibida kelganda gapning boshqa bo'laklari bilan bog'lanmaydi, shuning uchun

²⁶ Ғозиев Х. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 4.

²⁷ Азим У. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016 – Б. 82.

talaffuzda ohang bilan, yozuvda vergul bilan ajratib yoziladi” kabi qoida talabiga ko‘ra qo‘llangandek ko‘rinadi. Ammo badiiy matnda qo‘llangan vergul bajarayotgan vazifa o‘zidan avvalgi qism ohangini gapning umumiy ohangidan ajratib tashkillashdangina iborat emas.

Parchadan o‘zini tabiatning eng buyuk yaratig‘i va barcha ne‘matlar men uchun yaratilgan deb bilib turgan INSONni va o‘z maqomini anglamay, o‘z qo‘li bilan yaratilgan buyumlarga bog‘lanib qolgan “inson”ni ko‘rish mumkin. She‘rning eng muhim nuqtasi yesa INSONning “inson”dan hafsalasi pir bo‘lishi, uni o‘zi qatori ko‘rmasligi va u bilan vidolashuvi vaqtidagi afsuslanishi bilan ifodalangan. INSONning nutq momentidagi ruhiy holati (hayotiy haqiqatlarning puchga chiqishi, imkonsiz qolishi kabilar) “Alvido,” kombinatsiyasi orqali o‘rinli ifoda qilingan. Fikrimizni xuddi shu jumlaning bir ijodkor tomonidan boshqa o‘rinda bundan farqli qo‘llangani bilan ham izohlash mumkin:

Alvido! Men endi maqsadga yetdim,
Bog‘doshlar, so‘ng yo‘lga kuzating, qani...
Men o‘tin bo‘lgani uzlatga ketdim,
Men ketdim, do‘stlarim, olov bo‘lgani²⁸.

“Alvido” undov so‘zidan keyin qo‘llangan “!” belgisi o‘zi uchun so‘nggi, lekin sharaflı yo‘lnı tanlagan lirik qahramon ruhiy holatini ifoda qilish uchun tanlangan o‘rinli kombinatsiyadir. Uning tanlagan yo‘li sharaflı bo‘lib, ma‘nisiz (she‘rning birinchi bandi shu haqda) hayotida tub burilish bo‘lishi bilan birga, undan hayotining yakuni bilan teng yo‘qotishni talab qiladi. Mazmunsiz davom etadigan yashashdan ko‘ra, sharaflı yakunni tanlayotgan lirik qahramon shuurida kechayotgan hissiyot uning birgina vidolashuv so‘zi va so‘zning o‘ziga xos intonatsiyasida o‘z aksini topgan.

Shunga ko‘ra, tinish belgisining ifoda vositasi ekanligi yoki poetik ifoda vositasi ekanligi uning qanday tinish belgiligi, qay o‘rinda, amaldagi qoidaga mos yoki zid qo‘llangani bilan emas, qay maqsadda qo‘llanganligi bilan xarakterlanadi. Poetik ifodaga xizmat qilayotgan tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog‘liq ko‘p kuzatiladigan ikki holatni:

a) muqobil tinish belgilari orasidan bittasini ma‘lum maqsad o‘laroq tanlanishi;

b) amaldagi me‘yorlarga zid atayin qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Bu ikki holatda poetik ifoda aniq, bo‘rtib ko‘rinib turadiki, ziyrak o‘quvchi maqsad qilingan poetik mazmunni bir o‘qishda anglaydi. Buning asosiy sababi boshqa poetik ifoda vositalari kabi tinish belgilariga ham birdek xos atayinlik bilan izohlanadi.

Tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog‘liq mavjud qoidalardan chekinishning har qanday ko‘rinishini muallifning individual me‘yorlari, tinish belgilaridan ixtiyoriy foydalanish deyish mumkin. Poetik mazmun ifodasiga xizmat qiluvchi sintaktik birlik va intonatsiyani tashkillash maqsadi o‘laroq

²⁸ Азим У. Сайланма. 1 жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016. – Б. 45.

kuzatilib turadi. Soʻz uchinchi takrorining “xalq...” shakli ayni vaqtda lirik qahramonda kechayotgan chuqur ruhiy iztirobni ifodalashga, uni oʻquvchi koʻz oʻngida gavdalantirishga xizmat qiladi. Bu bilan shoir oʻquvchidagi kechinmaga nisbatan lirik qahramonning qachondir yuz bergan ruhiy holati tasviri sifatidagi yondashuvini bekor qiladi. Oʻquvchi oʻzini kechinma yuz bergan vaqtning ishtirokchisi sifatida koʻradi.

Personaj nutqi ijodkor tomonidan yaratilgan qahramonning ishonarli va tabiiy boʻlishida muhim vazifa bajaruvchi vositalardan biridir. U koʻp hollarda qahramonning ruhiy holati, ijtimoiy mavqei, yoshi, hududiy mansubligi, fiziologik holati haqidagi informatsiyani tashiydi. Unda qahramonning ijtimoiy mavqei, ruhiy holatini ifoda qiluvchi tanlama soʻzlardan tashqari, yoshi, hududiy mansubligi va koʻp hollarda fiziologik holatini ifoda qiluvchi amaldagi meʼyorlardan ogʻish hollarini kuzatish mumkin.

...Nuralini “sagʻir” der edik...

“Men sagʻiy emasman, onam boy” derdi.³⁰

“R” tovushini talaffuz qila olmasligi “Nurali”ning tengdoshlaridan yagona farqi emas. Uni bu nuqsonidan koʻra koʻproq onasiz ekanligi va tengdoshlarining bolalarcha masxaralari davralardan chetda saqlagan. Ammo uning hayotida shunday burilish yuz berdiki,

...“U-ya! U-ya!! U-ya!!!”

Nuraliga joʻr boʻlamiz burro tengdoshlar:

“Ura! Ura!! Ura!!!”

shu vaqtgacha iymonib kelgan kamchiligi sababli bolalardan yashirinib oʻtirmadi. Aksincha, ularning nohaq ekanliklarini bolalarcha isbotlash uchun ular davrasiga chopadi. U oʻz quvonchini ifoda qilayotgan undov soʻz garchand nuqsonini yaqqol sezdirib qoʻysa-da, uni shu sabab masxara qilganlardan yashirmaydi. Bunday ifoda esa “Nurali”ga xos ruhiy holat darajasini belgilash va toʻla ifoda qilishga xizmat qiladi.

“Onam meni koʻygani keldi,

Chopon, belbogʻ, doʻppi opkeldi”.

Lirik qahramon nutqidagi kamchiliklarni bunday ifodalanishi uning hayotida yuz bergan voqelikning naqadar ahamiyatli ekanligini koʻrsatishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. Nutqning ogʻzaki shakli bizga maʼlum ifoda yoʻsinlarining tabiiy va eng mukammali boʻlsa-da, nutqning saqlanish muddatini uzaytirish va tarqalish doirasini kengaytirish maqsadida uning yozuvdagi ifodasi vujudga keldi. Bu esa grafik shaklga, belgilarning yozuv sathi boʻylab joylashuv grafigiga ifoda vositasi sifatida qarashga asos boʻladi. Insonga xos har qanday ifoda yoʻsini tafakkurning namoyon boʻlish shakli hisoblanadi. Inson ongida kechayotgan har qanday fikrni ifoda qilish bilan birga, uning oʻzi bu jarayonning qay darajada amalga oshayotganini nazorat qiluvchi ikkinchi tomon vazifasini ham bajaradi. Ifodani

³⁰ М.Кенжабек. Куёшга қараган уй. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 27.

qayta (ifoda qay shaklda bo‘lishidan qat’i nazar) ko‘rib chiqqan yaratuvchi uning ifodaviy qimmatini ongidagi mazmunga mos ko‘rgan taqdirdagina adresatga taqdim qiladi. Ya’ni, ifoda jarayonining yakun topishi uning ifodalovchi nazdidagi mukammallikka erishganini anglatadi. Yozuv sathi va yozuv kombinatsiyasi, ya’ni so‘zlarning sath bo‘ylab joylashish grafigi muhim ifodaviy vositalardandir. Chunki bu masala yozuv imkoniyatlari bilan hisoblashgan holda nutqni yozma shaklda qayta tashkillovchining ixtiyorida bo‘ladi.

2. Kishida yashab turgan davriga nisbatan yangi, zamonaviy ongning shakllanishi uni ifoda qila oladigan vositalarga ham ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida uning nutqiga, nutqning yozuvdagi ifodasi – grafik shaklga ham birdek ta’sir ko‘rsatadi. U o‘zida mavjud bilimlar asosida borliqni idrok etib, o‘zi mansub zamon bilan faol munosabatda bo‘lar ekan, kishilik jamiyatida yaratilgan har qanday yangilik uning ongiga ta’sir ko‘rsatadi, tafakkurini zamonaviylashtiradi, ifoda imkoniyatlarini boyitadi, o‘zlashtirilgan yangilikdan ifoda vositasi sifatida foydalanishga urinadi. Bu esa qay sohada bo‘lishidan qat’i nazar yaratilgan yangilikning, eng avvalo, ifoda jarayonida faollashuvini anglatadi. Kompyuter dasturlaridan yozuv vositasi sifatida foydalanila boshlashi va ularda yozuv imkoniyatlarining kengligi buning yaqqol misoli bo‘la oladi.

3. Nutqning yozma shakli vujudga kelishi bilan nutqning og‘zaki shaklidagi nutq momentiga xos intonatsiya, ohang, pauza, tembr kabi vositalar bilan ifodalanuvchi yondosh mazmuni qayta kodlash muammosi paydo bo‘ldi. Bu muammo, ayniqsa, badiiy nutqda alohida mohiyat kasb etadi. Chunki badiiy nutq nazarda tutilgan yondosh mazmun (so‘zlovchining subyektiv munosabati)siz badiiyat hodisasiga aylana olmaydi. Bu muammo ko‘p jihatdan grafik birliklar va vositalar hisobidan hal qilindi. Grafik shaklning ifodaviyligini badiiy adabiyotning barcha turlarida birdek kuzatish mumkin bo‘lgani holda, uning eng yuqori faolligini she’riy yo‘l bilan yozilgan lirik asarda yaqqol kuzatish mumkin. O‘ziga xos qurilishga ega she’riy nutq va har qanday badiiy asar mohiyatida turuvchi inson qalbini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda qilishni maqsad qilgan lirikaning bir nuqtada birlashuvi nafaqat mavjud imkoniyatlardan to‘la quvvat bilan foydalanishni, balki doimiy izlanishni taqozo qiladi.

Ammo grafik shakl ifodaviyligi bilan bog‘liq izlanishlarning barchasini birdek ijobiy baholash to‘g‘ri emas. Hamma adabiy davrlarda bo‘lgani kabi Yangi o‘zbek she’riyatida ham grafik shakl bilan bog‘liq o‘zini oqlamagan, natijada shakl va mazmun orasidagi o‘zaro murakkab munosabatga putur yetkazgan tajribalarni ham kuzatish mumkin.

4. Ong orqali anglanadigan oddiy axborotdan farqli poetik axborot ifodasi alohida yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun grafik shakl bilan bog‘liq yangilanishlar va tilning turli sathlaridan og‘ishlar badiiy, xususan, she’riy nutq uchun tabiiy bir hol. Buning asosiy sababini uning yaratuvchisi IJODKOR ekanligi bilan izohlash o‘rinlidir. Vaqt o‘tib poetik ifoda usullari nutqning boshqa shakllariga joriy qilinishi ham tabiiy, chunki insoniyat hamisha ifodaviy mukammallikka ehtiyoj sezadi. Grafik shakl bilan bog‘liq yangicha ifoda shakllari umum tomonidan birdek qabul qilinishi bilan maqsad qilingan mazmun ifodasi

uchun yangicha yondashuvga ehtiyoj tug'ilaveradi. Bu esa ifodaviy yangilanishlar hamma zamonlarning muhim masalasi bo'lganini anglatadi.

5. She'r grafik shakli bilan bog'liq qonuniyatlar ma'lum davr badiiy tafakkurida yuz bergan o'zgarishlar asosida shakllanadi, aniq aytilsa, tafakkurda yuz bergan o'zgarishlarni ifoda qilishga qayta xoslanadi. Shuning uchun grafik shaklning ma'lum adabiy davrda qat'iy qoidalar asosida tashkillanib turg'un ko'rinish olishidan tortib, mavjud qoidalarni inkor qilishigacha tabiiy jarayondir. Yangi o'zbek she'riyatida she'r grafik shaklining ifodaviy faollikka erishuvini shu bilan izohlash mumkin.

6. She'r grafik shaklini ifoda vositasi sifatida ko'rish o'quvchidan badiiy asar o'qish tajribasi va badiiy matnga ijodkorona yondashuvni talab qiladi. Grafik shakldagi har qanday ifodaviylikdan ma'lum maqsad ko'zlanganini nazarda tutib turish retsepsiya jarayonining jozibali bo'lishi va to'laqonli amalga oshishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, grafik shaklga bunday yondashuv nashr ishlariga qo'yilgan talablarni yanada qat'iylashtiradiki, yo'l qo'yilgan juz'iy kamchiliklar ham mazmunning to'la anglanmasligi yoki undagi ayrim yo'qotishlarga, aksar hollarda badiiyat hodisasi sifatida qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Ijodkor tomonidan tashkillangan grafik shaklning daxlsiz qolishi nazarda tutilgan ehtimollarning oldini oladi.

7. She'r grafik shakli avvaldan tayyor qolip bo'lmay, u mazmun ifodasi uchun eng optimal shakl sifatida tashkillangan konstruksiyadir. Uni tashkillashdagi yagona mezon nazarda tutilgan mazmunining to'la ifodaviyligiga erishishdir. Grafik shakl ifodaviy faolligining ortishi yangi o'zbek she'riyatiga xos yangilangan tafakkur va uni ifoda qilishdagi o'zgacha yondashuv sifatida barmoq vaznining qayta faollashuvi bilan izohlash mumkin. An'anaviy barmoq vazni grafik shaklining yangi o'zbek she'riyati bilan birgalikda shakllanib borishi ham alohida ahamiyatga ega. Ammo bu an'anaviy she'riy shakllarning ifodaviylikdan holi deyishga asos bo'lmasligi kerak. Adabiy jarayonda an'anaviy she'riy shakllarning saqlanib qolishiga urinishning o'ziyoq uning mohiyatan yangilanganiga ishora qiladi.

8. Grafik shakl bilan bog'liq yangilanishlar natijasida ayrim nazariy qarashlar tahrirtalab holga keldi. Adabiyotshunoslik adabiyotdan bir qadam ortda borar ekan, bu tabiiy jarayondir. O'z vaqtida band, misra uchun o'rinli berilgan ta'riflar unga bo'lgan munosabatning o'zgarishi bilan qimmatga ega bo'lmay qoldi.

9. Shaklli she'rlar she'r grafik shakliga nisbatan qism maqomida qolsa-da, ularning retsepsiyasi bir-biridan keskin farq qiladi. She'r grafik shakli mazmunning faollashuvini boshqarib tursa, shaklli she'rlarda ko'rish orqali avval shakl ifoda qilgan mazmun faollashadi va she'r mazmuni bilan turli munosabatlarga kirishadi. Shunday ekan, bu ikki tushunchani mohiyatan bir hodisa deb qarab bo'lmaydi.

10. Yozuv kalligrafiyasi grafik vositalarning eng qadimgi ko'rinishlaridan biridir. Xattotlar foydalangan yozuvning turli shakllari, alohida rangli siyohlar buning dalilidir. Yozuv kalligrafiyasidan mazmunning bir qismini ajratib ko'rsatish, urg'ulash, qismlar orasidagi mazmunning munosabatini ifodalash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Misra va bandga xos odatiy shakllarning yangilanishi,

she'r matniga yangicha kalligrafik shakllarning joriy qilinishi ifodaviy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda she'r tushunchasiga xos azaliy xususiyatlarga bir qadar daxl qildi. Buning asosiy sababi shoir ikkinchi tomonni avvalgidek tinglovchi emas, faqat o'quvchi sifatida ko'rishidir. Uning eng yuqori ifodaviy faolligini faqat mutolaa vaqtidagina ko'rish vositasida anglash mumkin. Ya'ni, ayrim band va misra shakllari, kalligrafik ifodalar faqat yozuvdagina qimmatga ega bo'ldi. Ularni og'zaki nutqda ifodalashning imkoni majud emas. Oqibatda, nazarda tutilgan o'rinlarda she'rning ijroga xoslanganlik xususiyati o'z qimmatini yo'qotdi.

11. Tinish belgilarining joriy qilinishi ifodaviy mukammallikning natijasidir. Ular og'zaki nutq momentida intonatsiya vositasida uzatiladigan mazmunning ifodalanishida katta ro'l o'ynaydi. Nazarda tutilgan yondosh mazmun nutqning boshqa shakllaridan ko'ra badiiy nutqning, xususan, she'riy nutqning katta qismini tashkil qilganligi sababli she'riy nutqda tinish belgilarining vazifasi ortadi. Bundan tashqari tinish belgilari she'riy nutq uchun asosiy xususiyat hisoblanuvchi ritmik-intonatsion qurilishi uchun tayanch vazifasini ham bajaradi.

12. Badiiy nutq tarkibidagi orfografik me'yordan og'ishlar poetik mazmun ifodasida katta ahamiyatga ega. Unda barcha ifoda vositalariga xos "atayinlik" xususiyati aniq sezilib turadi. Va shu xususiyatiga ko'ra o'quvchi diqqatini o'ziga tortib, tashkillangan ifodaviylikdan badiiyat hodisasi yaratishga urinishdek ikkilamchi ijod jarayonini tashkillaydi.

13. Bir tomondan, she'r grafik shaklining ifoda vositasi sifatida faollashuvi asar mutolaasini ham qizg'inlashtiradi. Bunday she'riyatni to'la anglash uchun kitobxondan she'r o'qish tajribasi, adabiyotshunoslik ilmidan xabardor bo'lishi talab qilinadi. Bir so'z bilan bunday she'riyat o'quvchini tayyor "iste'molchi"dan yarim ijodkor darajasiga ko'taradi. Ikkinchi tomondan esa grafik shakl ifodaviyligining faollashuvi she'riyatning ommaviydan elitar sari bir odim siljishiga sabab bo'ldi. She'riyatga faqat san'at turi sifatida qarovchi va undan ko'tarinki estetik zavq kutuvchi o'quvchilar uchun bu tur she'rlar "ortiqcha mehnat"day tasavvur uyg'otadi. Bu esa bir vaqtda o'quvchi qatlaminig torayishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА АКАДЕМИИ
НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

УДК: 821.512.133'06.09-1+801.6

ТОЖИДИНОВ ТОШПУЛАТ ШОКИР УГЛИ

**ГРАФИЧЕСКАЯ ФОРМА ПОЭЗИИ КАК СРЕДСТВО
ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ**

(На примере новоузбекской поэзии)

10.00.07 – Теория литературы

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Андижан–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/Fil4760

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещена на веб-странице Андижанского государственного университета (www.adri.uz), а также на портале информации и образования портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Курунов Дилмурод Хайдаралевич,
доктор филологических наук, профессор

**Официальные
оппоненты:**

Аманова Зилюла Кадировна
доктор филологических наук, доцент

Ёкубов Исламжон Ахмеджанович
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 по присуждению учёных степеней при институте узбекского языка, литературы и фольклора Академии Наук Республики Узбекистан «9» июль 2025 года в 10⁰⁰ часов. (Адрес: 100060, Ташкент, переул. Шахрисабз, дом №5. Tel: (99871) 233-36-50; faks (99871) 233-71-44; e-mail; tafi@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре института узбекского языка, литературы и фольклора Академии Наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 5). (Адрес: 100060, Ташкент, переул. Шахрисабз, дом №5. Tel: (99871) 233-36-50; faks (99871) 233-71-44).

Автореферат диссертации разослан «26» июня 2025 года.
(реестр протокола рассылки за № 9 от «26» июня 2025 года.).



Б.Тухлиев
Председатель Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.ф.н., профессор

Д.Аскарров
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.н. (PhD)

У.А.Хамдамов
Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению
учёных степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность диссертационного исследования.

В мировом литературоведении исследования, посвященные выражению художественного содержания, всегда имели особое значение. Главная причина этого в том, что литература — это область, выражающая человеческое сердце, душу и эстетическую красоту.

С началом переосмысления устной формы художественной речи в письменную в мировой цивилизации возникла проблема изучения природы графической формы, ее выразительных возможностей и форм проявления. Хотя и сравнительно поздно, изучение процесса возникновения содержания, сходного с устной речью, посредством выразительных возможностей графической формы стало важной проблемой для многих областей науки, таких как литературоведение, языкознание, психология, логика, источниковедение. Основная причина этого заключается в том, что письмо является единственным средством (за исключением современных виртуальных представлений речи), которое реорганизует обмен информацией между «говорящим» и «слушателем» за пределами реального времени, в котором произносится речь. Отслеживание любых изменений, особенно новшеств, происходящих в узбекской литературе, постоянный анализ их причин и следствий является одной из важных задач литературоведения. В реализации художественной речи, которая отличается более сложной структурой, чем другие формы речи, большое значение имеют любые средства выражения, в частности графическая форма. Его выразительная ценность еще больше усиливается, особенно в поэтической речи с ее уникальной структурой. Возрастание роли графической формы в выражении поэтического содержания еще более очевидно в формировании нового отношения к ней как у автора, так и у читателя. В результате графическая форма стиха, которая долгое время представляла собой во всех отношениях внешнюю структуру поэтической речи, стала служить цели воздействия на содержание текста, выражения его с высокой точностью. Для этого необходимо рассматривать графическую форму, прежде всего, как средство выражения и определять ее роль в анализе произведения.

В то время как мировое литературоведение рассматривает графическую форму поэзии как отдельную область науки и проводит обширные исследования, можно заметить, что наше отечественное литературоведение по-прежнему подходит к ней с точки зрения традиционной поэтики. Рассматривание поэтической речи как единственную форму литературы было естественно и в то же время целесообразно, что графическая форма приняла вид шаблона в образцах нашей классической литературы, где господствовали строгий ритм и традиции. К концу XIX века в нашей литературе произошел крутой поворот. В последнее время стало все

более очевидным, что не только название нашей поэзии, но и ее содержание, а также формальная структура, ее выражающая, претерпели обновление. Хотя было проведено много исследований по содержательным новациям Новой узбекской поэзии, ее материальная основа — ее графическая форма — не отделена от соображений, основанных на формальном подходе, называемом конструкцией поэзии.

В частности, требуют анализа графическая форма поэзии в некоторых литературных произведениях; её структурные элементы: требуют редактирования строки и строфы, а такие вопросы, как каллиграфия, отклонения от орфографической нормы и роль знаков препинания в выражении поэтического содержания. Потребность в совершенной выразительности приводит к постоянному обновлению и движению средств выражения. Уникальный контент, продукт обновленного мышления, постоянно нуждается в средстве, способном выразить себя в совершенстве. Это привело к усовершенствованию пишущих инструментов вплоть до создания программ, позволяющих современным средствам массовой информации выражать нюансы содержания. Таким образом, он стал средством выражения — от простейших форм письма до компьютерных программ, а в художественных текстах — выражением поэтического содержания. В результате графическая форма приобрела совершенно новую сущность в современной поэзии: функцию и формальный облик. Очевидно, что изучение его выразительного потенциала сейчас необходимо как никогда.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № УП -60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», распоряжение Президента Республики Узбекистан от 12 января 2017 года «О создании комиссии по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 «О деятельности Академии наук, организации научно-исследовательских работ и мерах», распоряжении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № Р-124 «О проведении международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы на международном уровне», также других нормативно-правовых документах по данной тематике.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Степень разработанности проблемы. В мировом литературоведении графическая форма поэзии рассматривалась как составная часть

архитектоники (внешней структуры)³¹ произведения, и было проведено несколько исследований. Общим для этих исследований является то, что они рассматривают архитектуру поэзии как средство выражения, результат взаимодействия содержания и формы. При этом организация архитектуры поэзии рассматривается как деятельность, идущая параллельно и имеющая равный статус с творческим процессом.

В русском литературоведении этот вопрос изучается как «поэтическая графика»³². Характерно, что поэтическая графика рассматривалась как проблема и литературоведения, и языкознания одновременно и проведено было ряд исследований.

В исследованиях³³, связанных наиболее ранними теоретическими воззрениями в отечественном национальном литературоведении, мы встречаем описания компонентов графической формы, их видов и функций в литературе определенного периода. В исследованиях³⁴, посвященных новой узбекской поэзии, рассматривается своеобразие графической формы, выявляется ее специфическая черта поэзии данного периода. В этом исследовании также имеются различные противоречивые заключения и воззрения из-за различий во взглядах и подходах. Взгляды на изобразительную форму поэзии в нашем литературоведении, сформировавшиеся в результате исследований, посвященных изучению проблем, связанных с традиционной поэзией, являются следствием формального подхода и в некоторых местах нуждаются в корректировке.

Связь исследования с научными планами высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Диссертация выполнена в

³¹<https://diaryofanarchitecturalassistant.wordpress.com/2011/06/09/at-the-ruins-of-cardross-seminary-i-sat-down-and-wept/>; https://www.campobaeza.com/wp-content/uploads/2012/01/2013_2%с2%ba-ed_principia_architectonica_eng_02_architecture-as-poetry.pdf; <https://drawingmatter.org/poetry-and-architecture-2023-review/> (Murojaat qilangan sana: 20.05.2023).

³²Бадаев А.Ф. Функциональные типы поэтической графики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2009.; Бадаев А.Ф., Казарин. Ю. В. Поэтическая графика (функционально-эстетический и лингвистический аспекты): Монография / А.Ф. Бадаев, Ю.В. Казарин. – Екатеринбург: ИД «Союз писателей», 2007. – 188 с; Бадаев А.Ф. Поэтическая графика: дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург; 2005; Борисова И. М. Графический облик поэзии: “лесенка”, курсив, графический эквивалент текста: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самара, 2003.; Бутов Р.Н Графика в поэтическом тексте: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2010; Козлов В. И. Здание лирики: Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет Монг, 2007. – 240 с; Казарин А.В. Филологический анализ поэтического текста. М.: Академический проект, 2004. – 430 с; Макарова Л. С. Графическое оформление поэтической речи и его преобразования в переводе (graficheskoe_oformlenie_poeticheskoy_rechi_i_ego_preobrazovaniya.pdf); Борисова. И.М. О типологии графической композиции стиха (o-tipologii-graficheskoy-kompozitsii-stiha%20(2).pdf); <https://studfile.net/preview/9654130/page:23/>, <https://www.ruthenia.ru/lotman/papers/apt/10.html>; (Murojaat qilangan sana: 22.10.2021).

³³Форобий. Фозил одамлар шаҳри: – Тошкент: Ibn Sino. She’r san’ati (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-she-sanati.html>); Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993; Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; А. Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.

³⁴Хайитов А. 90- йиллар ўзбек лирикасида анъана ва шаклий изланишлар: Филол. фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент; 2004; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётгида шеърый шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005; Саидганиева. Г. Истиқлол даври лирикаси строфика ва ритмининг поэтик образ яратишдаги ўрни: Филол. фан.номз...дисс. – Тошкент; 2011; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърыйати. – Тошкент: Adib, 2012.; Йўлчиев Қ. Поэтик олам сирлари. – Тошкент: Akademnashr, 2012; Муллахўжаева Р. Тафаккур янгилиниши. – Тошкент: Muharrir, 2019.

рамках научно-исследовательского плана Андижанского государственного университета по теме «Актуальные проблемы узбекского литературоведения».

Целью исследования является изучение выразительного потенциала графической формы поэзии и анализ факторов, активизирующих использование ее выразительного потенциала, оценка выразительности, присущей графической форме как специфической черте новой узбекской поэзии и использование ее выразительного потенциала, а также выявление причин активизации новых подходов и экспрессивных исследований в этот литературный период.

Задачи исследования:

выявить отличия графической формы поэзии от графики, присущей другим формам художественной речи, а также различия между задачами;

рассмотреть характерные черты и функции графической формы поэзии, оценить ее выразительную ценность в нашей традиционной поэзии;

проанализировать тенденции его обновления;

оценить влияние графической формы стихотворения на поэтическое содержание;

изучить с критической точки зрения теоретические соображения на изобразительную форму поэзии и ее компоненты, выявить новые возможности ее выражения на основе опыта мирового литературоведения;

классифицировать графическую форму поэзии и ее компонентов.

Объектом исследования стала новая узбекская поэзия. Чулпан, Абдулла Арипов, Рауф Парфи, Абдулла Шер, Уллибиби Отабоева, Усман Азим, Шавкат Рахмон, Юлдаш Эшбек, Икром Атамурод, Хуршид Даврон, Усман Кучкар, Мирзо Кенджабек, Мухаммад Юсуф, Фарида Бутаева, Яхё Тога, Замира Рузиева, Акар Махкам, Халима Ахмедова, Абдували Кутбиддин, Эшкobil Шукур, Рустам Мусурмон, Фахриёр, Икбол Мирзо, Хосият Рустамова и другие.

Предметом исследования является роль графической формы поэзии в выражении поэтического содержания и вопросы ее внутреннего обновления.

Методы исследования. В диссертации использованы методы социологического, историко-сравнительного, системного и психологического анализа.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

Потребность в изображении оценивалась как постоянная деятельность человека, а обновление, связанное с поэтическими формами, рассматривалось как результат достижения выразительного совершенства;

графическая форма поэзии не является готовым шаблоном, сформированным продолжающейся традицией, а оценивается как результат содержания в форме;

полное обновление художественного мышления, присущее новой узбекской поэзии, и потребность в новых выразительных средствах,

способных его выразить, позволили более точно рассмотреть новации, связанные с изобразительной формой;

высказано критическое отношение к различиям в издательской работе, а авторскому варианту отдавался приоритет в организации графической формы стихотворения;

учитывая, что научные выводы об изобразительной форме поэзии, ее компонентах, графических единицах и средствах требуют в некоторых местах редактирования, что было оценено как естественный процесс.

Практические результаты исследования:

Определено, что в новой узбекской поэзии появились новые возможности выражения графической формы стиха, и сопоставлены различия между традиционной и обновленной графической формой стиха;

сделаны точные выводы относительно классификации изобразительной формы поэзии, ее компонентов и их взаимосвязей, пересмотрены и обогащены наши отечественные теоретические взгляды на изобразительную форму поэзии и ее компоненты;

выявлены обновленные отношения поэта и читателя к графической форме поэзии одновременно;

показано, что проведенные анализы способствуют оптимальной организации рецепции произведения и формированию у читателя способности испытывать намеченное максимальное эстетическое наслаждение.

Достоверность результатов исследования определяется постановкой цели исследования по актуальной проблеме, обоснованием теоретических воззрений на мировые и отечественные литературные источники, соответствием литературного периода, выбранного в качестве объекта, предмету исследования, реализацией теоретических идей и выводов на практике, подтверждением результатов уполномоченными структурами.

Научная и практическая значимость исследования.

